


2019yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yodga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 3203 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1173 taga ko'proqdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2393 ta (15,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18378 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1-avgust holatiga 18378 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,0 % savdo, 14,0 % sanoat, 11,2 % qurilish, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 27,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha royxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.08.2019 yil	
	01.08.2018 yil	01.08.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	15985	18378	115,0	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, oqmon va baliq xo'jaligi	1277	1323	8,3	7,2
Sanoat	1936	2570	16,1	14,0
Qurilish	1740	2061	12,9	11,2
Savdo	3847	4777	29,9	26,0
Tashish va saqlash	717	773	4,8	4,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1112	1293	8,1	7,0
Axborot va aloqa	221	231	1,4	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	274	320	2,0	1,7
Boshqa turlari	4861	5030	31,5	27,4

Hududlar bo'yicha royxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Termiz shahri (3831 ta), Denov (2154 ta), Jarqo'g'on (1370 ta) va Termiz (1264 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (701 ta), Muzrabot (813 ta) hamda Boysun (892 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17985 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2753 ta (18,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,2 % savdo, 14,0 % sanoat, 11,4 % qurilish, 7,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (3805 ta), Denov (2084 ta), Jarqo'g'on (1358 ta) va Termiz (1248 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (692 ta), Muzrabot (799 ta) hamda Boysun (857 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat koʻsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

(fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyul oylarida 3203 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko`pdir.


2019 yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (616 ta), Denov (440 ta), Termiz (265 ta) va Sho`rchi (260 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (113 ta), Boysun (124 ta) hamda Muzrabot (125 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1126 ta), sanoat (719 ta), qurilish (426 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (282 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (34 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (40 ta), hamda tashish va saqlash (97 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga 14463 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 6081 ta, oilaviy korxonalar -1007 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 7014 ta, unitar korxonalar - 157 ta, aksiyadorlik jamiyatlari -24 ta va boshqalar 180 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas`uliyati cheklangan jamiyatlar



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyatlar



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 287 tani tashkil etdi. O`qgan yilning shu davriga nisbatan 180 taga yoki 268,2 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg`oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston va Xindiston Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 287 ta korxonava tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonava tashkilotlarning eng ko`pi Termiz shahri (129 ta), Termiz (33 ta) Uzun (24 ta), Denov (14 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Boysun (3 ta), Oltinsoy (4 ta) hamda Qumqo`g`on (7 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 90 tasi qo'shma korxonalar, 197 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	287	100
Termiz shahri	129	45,0
Boysun	3	1,1
Oltinsoy	4	1,4
Qumqo'g'ron	7	2,5
Sherobod	9	3,1
Shoqchi	9	3,1
Jarqo'g'ron	9	3,1
Muzrabot	9	3,1
Qiziriq	11	3,8
Sariosiyo	13	4,5
Angor	13	4,5
Denov	14	4,9
Uzun	24	8,4
Termiz	33	11,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 109 tani tashkil qilgan. Bu koʻrsatkich esa oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 62 taga koʻpaygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (56 ta yoki jamidagi ulushi (51,4 %), Termiz (15 ta yoki 13,7 %) va Uzun (12 ta yoki 11,0 %) tumanlari hissalariga toʻqqi keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Boysun, Oltinsoy, Jarqoʻgʻon, Sariosiyo (1 tadan yoki 0,9 % dan), Qumqoʻgʻon hamda Qiziriq tumanlari (2 tadan yoki 1,8 % dan) hissalariga toʻqqi keladi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Afgʻoniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 82 ta, Tojikiston Respublikasi . 6 ta, Rossiya Federatsiyasi . 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi - 3 tadan, Qozogʻiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi - 2 tadan, Gretsiya Respublikasi, Gruziya Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi hamda Niderlandiya Qirolligi . 1 tadan yangi korxonalar roʻyxatdan oʻtgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Germaniya Federativ

Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (31 ta), sanoat (24 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 ta) hamda tashish va saqlashda (1 ta) tashkil etilgan.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14349 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-avgust holatiga qaraganda 22,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3279 tasi (22,7 %) Termiz shahri, 1685 tasi (11,7 %), Denov, 1091 tasi (7,5 %) Jarqoqon hamda 1083 tasi (7,5 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14349 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4695 ta (32,7 %) - savdo, 2492 ta (17,4 %) - sanoat, 2031 ta (14,1 %) - qurilish, 1252 ta (8,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1232 ta (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 744 ta (5,2 %) - tashish va saqlash, 252 ta (1,8 %) - sog'lami saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 221 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1430 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 3109 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (581 ta), Denov (432 ta), Termiz (261 ta) va Shoqchi (233 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Oltinsoy (109 ta), Muzrabot (120 ta) hamda Boysun (120 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1126 ta), sanoatda (718 ta), qurilishda (425 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (281 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (34 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta) hamda tashish va saqlashda (96 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1-avgust holatiga 1031 tani tashkil etib, ulardan 1007 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining oʻrinish dinamikasi, birlikda




Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlarikesimida qaralganda ularning 31,1 % yoki 313 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,7 % yoki 279 tasi sanoat, 24,0 % yoki 242 tasi savdo, 9,5 % yoki 96 tasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 1,1 % yoki 11 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 5 tasi sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, 0,3 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 4,7 % yoki 47 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	293	100,0
Termiz sh.	25	8,5
Oltinsoy	15	5,1
Angor	27	9,2
Boysun		
Muzrabot	3	1,0
Denov	64	21,9
Jarqoqqon	29	9,9
Qumqoqqon	8	2,7
Qiziriq	16	5,5
Sariosiyo	16	5,5
Termiz	25	8,5
Uzun	5	1,7
Sherobod	25	8,5
Shoqchi	35	12,0

2019-yil yanvar-iyul oylarida 293 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Denov (64 ta), Shoqchi (35 ta), Jarqoqqon (29 ta) va Angor (27 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muzrabot (3 ta), Uzun (5 ta) hamda Qumqoqqon (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %****Sanoat****Savdo****Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar****Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi****Qurilish****Axborot va aloqa****Boshqa turlari**

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 35,8 % yoki 105 tasi sanoat, 28,7 % yoki 84 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,5 % yoki 72 tasi savdo, 7,2 % yoki 21 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 2 ta qurilish shuningdek, 2,4 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:71-230-85-90(91)**